Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari.....	1064
<b>Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
<b>Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li</b>	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati.....	1075
<b>Badalov Jamshid Jamolovich</b>	
Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
<b>Shirinov Sabir Erkinovich</b>	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari.....	1084
<b>Anvar Eshmatov</b>	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlari.....	1088
<b>Ametova Nasiba Danilovna</b>	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
<b>Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna</b>	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
<b>Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li</b>	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
<b>Raxmonova Aziza Tolibovna</b>	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
<b>Umarov Elshod G'ulom o'g'li</b>	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
<b>Yuldashov Elmurod Abduljalil o'g'li</b>	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
<b>Икромова Ханифа Одилевна</b>	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
<b>Kamalova Jamila</b>	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
<b>Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li</b>	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
<b>Ne'matov Oybek Ismatullayevich</b>	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
<b>Туйчиев Комилжон Лазизович</b>	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
<b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b>	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
<b>Umarov Abdulquddus Abdilxatovich</b>	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
<b>Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович</b>	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
<b>Усманова Дилфузахон Иброхимовна</b>	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
<b>Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li</b>	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
<b>Xolmatov Sanjarbek Xojimamatovich</b>	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
<b>Qilichev Umid Ibadullayevich</b>	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari .....	1181
<b>Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
<b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
<b>Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
<b>Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
<b>G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li</b>	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
<b>Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li</b>	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
<b>Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы</b>	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
<b>Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna</b>	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
<b>Nematov Inatillo Ubaydullayevich</b>	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
<b>Umurzakova Adiba Ochilovna</b>	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari.....	1232
<b>Rahmanov Ilxom Xurramovich</b>	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
<b>Пулатова Сурайё Юлдашевна</b>	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
<b>Рафиева Зарина Хусановна</b>	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
<b>Akhmedov Doniyorbek</b>	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
<b>Azizova Manzura Ibragimovna</b>	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production.....	1254
<b>Dilfuza Baxramovna Safarova</b>	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
<b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rne va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
<b>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</b>	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati.....	1272
<b>Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li</b>	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
<b>Ibragimov Gafurjan Axmetovich</b>	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
<b>Ibragimov Mansur Axmedovich</b>	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
<b>Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich</b>	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
<b>Мансурова Севара Мансуровна</b>	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
<b>Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna</b>	



# MILLIY IQTISODIYOTIMIZDA INVESTITSIYA PORTFELINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI



**Ibragimov Gafurjan Axmetovich**

Qoraqalpaq davlat universiteti mustaqil doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning afzalliklari hamda uni rivojlantirish istiqbollarini takomillashtirish haqida soʻz boradi. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasida portfel investitsiyalarni jalb etishni rivojlantirish istiqbollaridagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish boʻyicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

**Kalit soʻzlar:** investor, portfel investitsiya, qimmatli qogʻozlar, aksiya, korporativ qimmatli qogʻozlar, obligatsiyalar, moliya bozori, moliyalashtirish usullari.

**Abstract:** This article will discuss the advantages of attracting portfolio investments into our national economy, as well as improving its development prospects. The existing problems in the prospects for the development of portfolio investment in the Republic of Uzbekistan, as well as the author's approaches and proposals for their elimination are also presented.

**Key words:** investor, portfolio investments, securities, stock market, corporate securities, bonds, financial market, financing methods.

**Annotatsiya:** В этой статье пойдет речь о преимуществах привлечения портфельных инвестиций в нашу национальную экономику, а также об улучшении перспектив ее развития. Также представлены существующие проблемы в перспективах развития портфельного инвестирования в Республике Узбекистан, а также авторские подходы и предложения по их устранению.

**Klyuchevye slova:** инвестор, портфельные инвестиции, ценные бумаги, фондовый рынок, корпоративные ценные бумаги, облигации, финансовый рынок, методы финансирования.

## KIRISH

Bugungi kunda investitsiya jarayoni pulni bir aktivdan ikkinchisiga oʻtkazishning cheksiz jarayoniga aylanasligi uchun investorlar investitsiya portfelini shakllantiradilar. Investitsiya portfeli keng maʼnoda investorga oʻz kapitalini saqlash va koʻpaytirish maqsadida tegishli boʻlgan barcha aktivlar toʻplamidir. Shuning uchun investorlar oʻz jamgʻarmalarini tashqi iqtisodiy omillardan va moliyaviy ahvoldagi oʻzgarishlardan himoya qilish uchun portfel investitsiyalaridan foydalanishga intilishlari bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, investitsiyalarning rentabelligi bank depozitlarining daromadlilikidan yuqori boʻlishi kerak, aks holda aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa vositalarni sotib olishning maʼnosi boʻlmaydi. Omonatlardan farqli oʻlaroq, investitsiyalar davlat tomonidan sugʻurta qilinmaydi va har doim xavf bilan bogʻliqligi mamlakatimizda portfel investitsiyalarni jalb etishda hamda uni moliyalashtirish holatiga salbiy taʼsir etmoqda.

## MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Yuqorida keltirilgan maʼlumotlarga asoslangan holda, investitsiya portfelini shakllantirish hamda kapital bahosini baholash orqali milliy iqtisodiyotimizda investitsiya faoliyatini rivojlantirish yoʻllari borasida mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan koʻplab ilmiy izlanishlar olib borilgan hamda tadqiq etilgan. Xususan, xorijlik iqtisodchilar Shannon P. Pratt, Roger J. Grabowski larning fikriga koʻra, "kapital bahosi bozor qatnashchilari tomonidan maʼlum bir investitsiya loyihalariga mablagʻ jalb qilish uchun talab qilinadigan hamda kutilayotgan daromadlilik darajasidir<sup>1</sup>. Iqtisodiy atama nuqtai-nazaridan, kapital bahosi bu maʼlum bir investitsiya loyihasi uchun muqobil xarajat, yaʼni qoʻldan boy berilgan boshqa bir yaxshi muqobil investitsiya loyihasi qiymatidir.

1 Shannon P. Pratt, Roger J. Grabowski. Cost of capital: Applications and examples, 3rd ed., 2008 year.



Mike Kaufmanning fikricha "...har qanday narsaning bahosi unga egalik qilish uchun to'lanishi lozim bo'lgan pul miqdori sifatida aniqlanishi mumkin. Kapital bahosi esa, bu moliya bozorida kapital jalb qilish uchun kompaniya tomonidan va'da qilinishi lozim bo'lgan mablag'dir. Kompaniya o'z kapital bahosini o'zi belgilamaydi, aksincha, kompaniya kapital bahosini aniqlashi uchun bozorga kirishi lozim. Ammo, kapital bahosi moliya bozorining asosiy o'lchov mezonlaridan biri bo'lib, uning yordamida kompaniya faoliyatini aniqlash mumkin<sup>2</sup>. Yana bir iqtisodchi olim Rodjer Ibbotsonning ta'kidlashicha "Muqobil kapital bahosi (ing. opportunity cost of capital) ma'lum bir risk darajasida muqobil investitsiya qilish orqali erishish mumkin bo'lgan daromadga tengdir",<sup>3</sup> deya fikr bildirib o'tgan.

Ya. O. Zubovning ta'kidlashicha, real sektor korxonalarini investitsiya portfelining xavfini minimallashtirish o'z mablag'larini saqlashga qaratilgan o'rtacha investitsiya strategiyasidir. Shuningdek, u loyihani portfelga kiritish to'g'risida qaror qabul qilish mezonini sifatida investitsiya xavfi va investitsiyalarning rentabelligi darajasidan foydalanish zarur deb hisoblaydi<sup>4</sup>.

O. S. Suxarev, S. V. Shmanyov, A. M. Kuryanovlar o'z tadqiqotlarida portfeldagi investitsiya loyihalarining sinergetik ta'siri zarurligiga asosiy e'tiborni qaratadi<sup>5</sup>.

Investitsiya portfelini boshqarish bo'yicha amaliy tajriba ushbu mezonni haqiqatan ham investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonida eng muhimlaridan biri deb atash mumkinligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlarga asoslangan holda, bizning fikrimizcha, portfel investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyoti uchun foydasi va afzallik tomonlari kamchiliklaridan bir necha marotaba ustun turadi. Shuningdek, mazkur jarayon asrlar davomida o'zini oqlagan hamda takomillashayotgan, mamlakatlar yalpi ichki mahsulotiga o'zining ulkan hissasini qo'shib kelayotgan tashkiliy-huquqiy shaklga ega hisoblanadilar.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa usullardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy mamlakatlarda milliy iqtisodiyotimizga portfel investitsiyalarni jalb etish usullarining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Fikrimizcha, investitsiya portfelini tashkil etuvchi va qo'llab-quvvatlovchi investitsiya kompaniyalari omonatchilarning kapitalarini saqlash va ko'paytirish bilan shug'ullanadi. Shunga asoslangan holda investitsiya portfeli ma'lum bir qiymatga ega bo'lgan aktivlar to'plamidir. Bu odatda aksiyalar, obligatsiyalar, oltin, valyuta va ko'chmas mulklardir. Aslida, investitsiya portfeli investorning mablag'larini qanday taqsimlash va ko'paytirishning strategik rejasidir. Portfel esa kompaniyaning joriy investitsiya strategiyasiga muvofiq yaratilishi va moliyaviy investitsiyalar uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan aksiyalar, obligatsiyalar va fyucherslar kabi moliyaviy vositalar guruhidir.

Portfelning asosiy maqsadi eng samarali va xavfsiz moliyaviy vositalarni tanlash va moliyaviy investitsiya siyosatimiz tamoyillariga muvofiqligini ta'minlashdir. Moliyaviy investitsiyalar portfeli vaqt omili deb ataladigan ma'lum bir davr uchun yaratiladi. Ushbu davr oxirida investitsiya strategiyasi baholanadi va aksiyalar hamda aktivlar sinflarini taqsimlashga o'zgartirishlar kiritiladi.

Investorlar o'zlari kutayotgan daromadlilikni aynan davlat qimmatli qog'ozlariga nisbatan belgilaydilar. Ya'ni fond bozorida qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar bo'yicha risk uchun mukofot amal qilishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Risk uchun mukofot asosida ham ta'kidlashimiz lozimki, korporativ qimmatli qog'ozlarning risklilik darajasi yuqori hisoblanadi.

Muomalaga chiqarish muddati nuqtai nazaridan davlat qimmatli qog'ozlari qisqa muddatga ham chikariladi. Ya'ni davlat pul bozorining muhim ishtirokchisidir. O'zbekistonda davlat qimmatli qog'ozlari savdosi valyuta birjasi orqali amalga oshirilib kelinmoqda. O'zbekiston xukumati tomonidan xalqaro bozorda joylashtirgan obligatsiyalar ham milliy valyutada, ham xorijiy valyutada (AQSh dollarida) muvaffaqiyatli joylashtirib kelinmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, xorijiy valyutada joylashtirilgan chet elda joylashtirilgan obligatsiyalar, xususan davlat obligatsiyalari ham yevroobligatsiyalar deb ataladi.

Keltirilgan davlat qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish bir tomondan inflyatsiyaning oldini olsa, ikkinchi tomondan soliq yukining ortib ketishining oldini olishini qayd etib o'tishimiz lozim.

2 Mike Kaufman, "Profitability and the Cost of Capital," in Chapter 8 of Handbook of Budgeting, 4th ed., ed. Robert Rachlin (New York: John Wiley & Sons, 1999), 8–3.

3 Ibbotson Associates, Cost of Capital Workshop (Chicago: Ibbotson Associates, 1999).

4 Zubov Я.О. Моделирование инвестиционного процесса с учетом налогообложения в условиях инфляции // Экономические анализ: теория и практика. – 2018. №8 – С. 1476-1489

5 Сухарев О. С., Шманёв С. В., Курьянов А. М. Синергетика инвестиций. – 2008.



Qimmatli qog'ozlar esa asosan o'rta va uzoq muddatli tarzda muomalaga chiqariladi. Bu xususiyat korporativ obligatsiyalarga tegishlidir. Chunki aksiyalar aksariyat holatlarda muddatsiz tarzda muomalaga chiqariladi. Aynan muddatsiz va daromadlilikning noaniqligi tufayli aksiyalar risk darajasi yuqori moliyaviy aktiv sanaladi. Umuman, qimmatli qog'ozlar muomalasining real sektor, moliyaviy sektor iqtisodiyot va aholi turmush farovonligi uchun ahamiyatini quyidagicha izohlashimiz mumkin (1-jadval).

**1-jadval: Qimmatli qog'ozlar muomalasining korporativ sektor, iqtisodiyot va aholi turmush farovonligi uchun ahamiyatli jihatlari<sup>6</sup>**

Korporativ sektor uchun	Iqtisodiyot uchun	Aholi turmush farovonligi uchun
Investitsiya faoliyatni moliyalashtirishni diversifikatsiyalash imkonini beradi	Iqtisodiyotni moliyalashtirishda va kapital jalb qilish da o'zaro raqobatni ta'minlaydi	Aholi jamg'armalarini iqtisodiyotga yo'naltirish variantlari ortadi.
Aksiyalar orqali arzon moliyaviy resurs jalb qilish mumkin	Arzon moliyaviy resurs yuqori iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi	Dividendlar va ularga qo'shimcha tarzda kursdagi farq bo'yicha ham daromad olish imkoni paydo buladi
Obligatsiyalar vositasida kreditlardan tashqari qarz mablag'lari jalb qilish imkoniyati paydo buladi	Karz instrumentlari bozori rivojlanishiga erishiladi va kreditlash natijasidagi inflyatsiyaning oldi olinadi	Kat'iy belgilangan daromad tufayli depozitlarga qo'shimcha tarzda qo'yilmalarni diversifikatsiyalash imkoniyati yuzaga keladi
Xalqaro obligatsiyalar xorijiy kapital jalb qilish va xalqaro kredit tarixi shakllanishida muhim instrument sanaladi	Kapital jalb qilish borasida ham global raqobatga kirishiladiva xalqaro bozorida nufuzi ham ortib boradi	Yirik loyihalar amalga oshirilishi natijasida aholi bandligi daromadlilik o'sishi kuzatiladi

Keltirilgan jadvaldan ko'rinib turibdiki, qimmatli qog'ozlar muomalasi avvalo xususiy sektor rivoji, so'ngra butun milliy iqtisodiy taraqqiyot va aholi turmush farovonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Qimmatli qog'ozlar faoliyatni moliyalashtirishda har tomonlama diversifikatsiyalash imkonini beradi. Bu o'z navbatida iqtisodiyotni moliyalashtirishda fond bozori va kredit bozori o'rtasida keskin raqobatni yuzaga keltiradi. Natijada esa aholi jamg'armalarini iqtisodiyotga jalb qilish yo'nalishlari, tanlov imkoniyatlari ortadi.

Yuqori rentabellik va investitsion jozibadorlikning ta'minlanishi xisobiga oddiy va imtiyozli aksiyalarning nominaldan yuqori joylashtirilishi aksiyadorlik jamiyatlarida qo'shilgan kapitalning ham ortishiga xizmat qiladi. Natijada kapital bahosi nihoyatda arzonlashadi. Arzon kapital jalb qilish orqali iqtisodiyotda yuqori o'sishga erishiladi. Milliy iqtisodiyotni moliyalashtirish imkoniyatlari nihoyatda torligi, inflyatsiya yuqoriligi sharoitida korporativ emitentlarda arzon kapital jalb qilish nixoyatda chegaralangan. Bunga ma'lum darajada iqtisodiyotning faqatgina kreditga tayanib kolganligi, imtiyozli kreditlash hajmining yuqoriligi sabab bo'lmoqda, deya olamiz. Iqtisodiyotda xususiy sektorning ulushini muntazam oshirib borish oxir-oqibat aksiyalar vositasida arzon kapital jalb qilishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida aholining dividendlar va ularga qo'shimcha tarzda kursdagi farq bo'yicha ham daromad olish imkoniyatlari oshib borishini ta'minlaydi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida eng muhim va korporativ biznesni moliyalashtirdagi eng asosiy instrumentlardan biri aksiyalardir. Garchi O'zbekistonda davlat korxonalarini aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish, yangi aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etishga qulay shart-sharoitlar 1990-yillardayoq yaratilgan bo'lsa-da, keng miqyosda fond bozori rivoji hamon kuzatilmayapti. Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlari soni 2006 yilga nisbatan 3,5 baravarga kam bo'lsada ular tomonidan muomalaga chiqarilgan aksiyalar emissiyasi hajmi yuqori darajada o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda (1-rasm).

Yuqorida keltirilgan, 1-rasm ma'lumotlaridan ayon bo'lmoqdaki, respublikamizda aksiyalar emissiyasi hajmi 2017 yilda 48,6 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yil yakuniga kelib 166,7 trillion so'mga yetgan. Bundan ko'rinadiki, emissiya hajmi 3,4 baravarga oshgan. Bunda o'sishdagi asosiy tendensiya xususiy aksiyadorlik jamiyatlari emission faolligi xisobiga ta'minlangan, deya olmaymiz. Aksincha aksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitalida davlat ulushini oshirib borishga qaratilgan moliyaviy qarorlar qabul qilinganligi va ular ijrosi ta'minlanganligi aksiyalar emissiyasi hajmining keskin o'sishiga asos bo'lib xizmat qilgan.


Shu o'rinda mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilgan investitsiyalar haqida to'xtalib o'tish joiz deb hisoblaymiz. Xususan, 2023- yilning yanvar-sentyabr oylarida jami 226,6 trln. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 111,8 % ni tashkil etgan.

6 Muallif ishlanmasi.



1-rasm: Mamlakatimizda aksiyalar emissiyasi hajmi<sup>7</sup>, (trln. soʻmda)

Asosiy kapitalga investitsiyalarning tarkibida 62,0 % yoki 140,5 trln. soʻm investitsiyalar jalb etilgan mablagʻlar hisobidan moliyalashtirilgan boʻlsa, korxonalar, tashkilot va aholining oʻz mablagʻlari hisobidan 38,0 % yoki 86,1 trln. soʻm moliyalashtirilgan. Shuningdek, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 29,6 trln. soʻmni tashkil etgan boʻlsa, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 197,0 trln. soʻm investitsiyalar oʻzlashtirilgan. (2-rasm)



2-rasm: Mamlakatimizda asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar hajmi<sup>8</sup>

Mamlakatimizda 2023-yilning yanvar-sentyabr oylarida korxonalar va tashkilotlarning oʻz mablagʻlari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 62,8 trln. soʻm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 27,7 foizini tashkil etgan. Aholi mablagʻlari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 10,3

<sup>7</sup> <https://uzcsd.uz/> asosida muallif tomonidan tuzilgan

<sup>8</sup> Muallif ishlanmasi



foizi yoki 23,3 trln. so'mi o'zlashtirilgan. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 43,6 trln. so'mni tashkil etgan va jami investitsiyalardagi ulushi 2022-yilning mos davriga nisbatan 4,5 foiz punktga ko'payib, 19,2 foizni tashkil etgan. Yuqoridagi statistik tahlilni o'tkazish maqsadida asosiy kapitalga investitsiyalar quyidagi asosiy kesimlarda: qo'yilma turlari, texnologik, takror ishlab chiqarish tarkiblari, iqtisodiy faoliyat turlari, moliyalashtirish manbalari bo'yicha shakllantiriladi. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga portfel investitsiyalarni jalb etishni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri investitsiyalar uchun texnologik infratuzilmani takomillashtirish, shu jumladan, portfelni boshqarish platformalarini, tahlil va savdoni rivojlantirishdir. Bu investitsiya jarayonini yanada shaffof va ommaviy investor uchun ochiq shaklda sharoit yaratib beradi.

Shuningdek, rivojlanishning muhim yo'nalishi investitsiyalar uchun turli xil aktivlar, shu jumladan, muqobil investitsiyalar, kriptoalyuta va boshqa yangi aktivlar sinflarining mavjudligini oshirish investor uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

## XULOSA

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, investitsiya portfelini shakllantirish investorlarga investitsiya qarorlarini optimallashtirishga yordam beradigan bir necha nazariy tamoyillarga asoslanadi.

1. **Markovits portfelini tanlash nazariyasi:** Garri Markovits tomonidan ishlab chiqilgan ushbu nazariya shuni ko'rsatadiki, investorlar turli xil aktivlarni birlashtirib, ma'lum bir xavf darajasini hisobga olgan holda samarali portfel yaratishi mumkin.
2. **Kapital aktivlarini narxlash modeli nazariyasi (Capital Asset Pricing Model):** CAPM aktivning bozor xavfini hisobga olgan holda allaqachon mavjud bo'lgan yaxshi diversifikatsiyalangan portfelga qo'shilishi kerak bo'lgan aktivning talab qilinadigan daromad darajasini aniqlash uchun ishlatiladi.
3. **Portfelni optimal baholash nazariyasi:** statistik usullar va optimallashtirishdan foydalangan holda, investorlar minimal xavf bilan kerakli daromad darajasiga erishish uchun portfeldagi aktivlarning optimal nisbatini aniqlashlari mumkin.
4. **Investitsiyalarni boshqarish nazariyasi:** ushbu nazariya portfelni boshqarish jarayoniga, shu jumladan, investorning maqsadlariga erishish uchun aktivlarni taqsimlash, diversifikatsiya qilish va portfelni qayta muvozanatlashga qaratilgan.

Umuman olganda, investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari investorlarga investitsiya maqsadlari va tavakkalchilik omillariga muvofiq aktivlarni tanlash, risklarni taqsimlash va kutilayotgan daromadlar to'g'risida ongli qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-sonli Qonuni. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi O'RQ-370-sonli "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning xuquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, 3-modda.
2. Shannon P. Pratt, Roger J. Grabowski. Cost of capital: Applications and examples, 3rd ed., 2008-year.
3. Mike Kaufman, "Profitability and the Cost of Capital," in Chapter 8 of Handbook of Budgeting, 4th ed., ed. Robert Rachlin (New York: John Wiley & Sons, 1999), 8-3.
4. Ibbotson Associates, Cost of Capital Workshop (Chicago: Ibbotson Associates, 1999).
5. Зубов Я.О. Моделирование инвестиционного процесса с учетом налогообложения в условиях инфляции // Экономические анализы: теория и практика. – 2018. №8 – С. 1476-1489.
6. Сухарев О. С., Шманёв С. В., Курьянов А. М. Синергетика инвестиций. – 2008.
7. Elmirzaev S.E. Aksiyadorlik jamiyatlari investitsion jozibadorligini ta'minlashning ayrim masalalari. // "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. – Toshkent, 2017. – №1.
8. Страхова Л.Н. О методологии акционирования. // Менеджмент в России и за рубежом, 1999. – №5.–С.28.
9. Абгряян А.А. Развитие российского рынка акционерного капитала в современных условиях. Дисс....к.э.н., – Москва, 2015. –С.13.
10. Эдди Маклейни. Бизнес финансы. Теория и практика. Издательский дом "ИНФРА-М". – Москва, 2008. – С.36.
11. Стоянова Е.С., Штерн М.Г. Финансовый менеджмент для практиков. – М.: Перспектива, 1998. –С.31.
12. Stiglitz J.E. Financial Systems for Eastern Europe's Emerging Democracies. – San Fransisco : ICS Press, 1993.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtjmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.